INKLYUZIV TA’LIM:CHEKLOVLAR ORTIDAGI IMKONIYATLAR OLAMI

Ummatkulova N.,GDPI stajyor - o‘qituvchisi
Safarova M.,GDPI Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada inklyuziv ta’limning mazmuni, imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim berishning pedagogik asoslari hamda o‘qituvchining bu jarayondagi o ‘rni yoritilgan.Inklyuziv yondashuv orqali bolalarning salohiyatini ochish va jamiyatga moslashtirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, imkoniyati cheklangan bolalar, sog‘lom tengdoshlar, pedagogik yondashuv, ijtimoiy integratsiya,mehr-muruvvat, kasbiy mahurat.

Аннотация: В статье рассматриваются содержание инклюзивного образования, педагогические основы обучения детей и роль учителя в этом процессе.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дети-сверстники, здоровые дети, педагогический мир, социальная интеграция, доброта, профессиональные навыки.

Abstract: this article discusses the content of inclusive education, the pedagogical foundations of teaching children with disabilities, and the role of the teacher in this process.

Keywords: inclusive education, peers, healthy children, pedagogical world, social integration, kindness, professional skills.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyot uchun asosiy mezonlaridan biri-bu barcha insonlarning, jumaladan, imkoniyati cheklangan bolalarning ham huquq va imkoniyatlarini teng ta’minlashdir.Bugungi kunda ta’lim tizimida inklyuziv yondashuv jadal rivojlanib,har bir bolaning o‘z salohiyatini ochishga xizmat qilmoqda.Inklyuziv ta’lim – bu nafaqat bilim berish jarayoni,balki mehr,tushinish va qo‘llab-quvvatlash madaniyatining namunasidir.

Inklyuziv ta’lim-bu imkoniyati cheklangan bolalarning sog‘lom bolalar bilan bir muhitda ta’lim olishini tashkil etishdir.Bu yondashuv har bir bolaning o‘ziga xos rivojlanish sur’atlarini inobatga oladi.Inklyuziv ta’limda asosiy tamoyil shuki:har bir bola jamiyatda o‘z o‘rniga ega va uning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar berilishi kerak.

Cheklovlar ortidagi imkoniyatlar.Imkoniyati cheklangan bolalar ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelsalar-da ularda kuchli iroda, qat’iyatlilik,sabr-toqat va ijodkorlik kabi sifatlar rivojlangan bo‘ladi.To‘g‘ri yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya orqali ular jamiyatga o‘z hissasini qo‘shadigan faol shaxslar bo‘lib yetishadilar.Inklyuziv ta’lim bolalarning ichki kuchini yuzaga chiqarishga to‘laqonli a’zosi sifatida shakllantiradi.

Shuningdek,sog‘lom bolalar uchun ham inklyuziv muhit katta ahamiyatga ega.Ular tengdoshlariga mehr-muruvvat ko‘rsatishni,sabrli bo‘lishni va insoniylikni erta yoshdan o‘rganadilar.Demak, inklyuziv ta’lim jamiyatda birdamlik va bag‘rikenglik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, eng avvalo, o‘qituvchilarning bilim darajasi, kasbiy mahorati va mehribonligiga bog‘liq:

1. Har bir bolaga individual yondashishi
2. Zarur hollarda maxsus metod va texnalogiyalardan foydalanishi
3. Sabr-toqatli,tushunadigan va ruhlantiradigan muhit yaratishi kerak.

O‘qituvchi bolalar uchun nafaqat bilim beruvchi balki ular hayotida yo‘l ko‘rsatadigan, orzu va intilishlarida yordam beradigan shaxsga aylanadi.Ularning fidoyiligi va mehribonligi natijasida har bir bola o‘zini qadrlagan va qadrli his qiladi.Inklyuziv ta’limni rivojlantirishning dolzarb vazifalari.Bugungi kunda inklyuziv ta’limni yanada rivojlantirish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish lozim.

- Maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- O‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim metodikasi bo‘yicha tayyorlash;
- Ta’lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash;
- Oilalar va jamoatchilik o‘rtasida inklyuziv madaniyatni rivojlantirish.

Inklyuziv ta’lim – bu cheklovlarni yengib o‘tish, imkoniyatlarni ochish va orzular sari yo‘l ochish demaktir. Har bir bola,imkoniyatidan qat’iy nazar, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga haqlidir.Inklyuziv yondashuv orqali biz nafaqat imkoniyati cheklangan bolalarni qo‘llab-quvvatlaymiz, balki jamiyatimizni yanada insonparvar, bag‘rikeng va kuchli qilamiz. Unutmaylik: Har bir bolaning qalbida ulkan imkoniyatlar yashiringan, biz esa ularni ko‘ra bilishimiz va rivojlantirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi „Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.-Toshkent;Adolat,2020
2. O ‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-fevraldagi PQ-5005-sonli qarori „Inklyuziv ta’limni rivojlantirish to‘g‘risida”.
3. N.Musurmonova.„Pedagogika va ta’lim nazariyasi asoslari”-Toshkent:Fan va texnalogiya”,2021
4. UNESKO.„Inclusive Education:The Way of the Future”.Geneva,2009.
5. Booth, T.,Ainscow,M.„Index for Inclusion:Developing Learning and Participation in Schools”.Bristol:CSIE,2002
6. Florian,L.(2014).„What counts as evidence of inclusive education.European Journal of Special Needs Education.
7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi.„inklyuziv ta’limni tashkil etish metodikasi”-Toshkent,2022.
8. Sovolov D.Maxmudov Q. „Maxsus pedagogika asoslari”Toshkent 2020.